



QISSA JANRINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Abdujalilova Gulmiraxon Odiljon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

1-bosqich tayanch doktoranti

gulmiraxonsultonova71@gmail.com +99891 326 52 67

Islombek Mannopov

Ilmiy rahbar: F.f.d., Dots.,

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19692784>

Annotatsiya

Bugungi kunda yozuvchilar faol ijod qilayotgan janrlardan biri – qissa janri hisoblanadi. Ushbu maqolada janrning o'ziga xos xususiyatlari, yutuq va kamchiliklari haqida fikr yuritiladi. O'zbek adabiyoti qissalari namunasida tadqiq qilinadi.

Kalit so'zlar: qissa, janr, epik tur, povest, rivoyaviy.

Qissa janri epik turning o'rta bosqichdagi janri hisoblanadi. Hajmi va ifodalanadigan mazmunga ko'ra romandan ko'ra kichik, hikoyadan ko'ra yirik janr hisoblanadi. Bu janrga juda ko'p adabiyotshunoslar, tadqiqotchilar to'xtalib o'tgan. Adabiyotshunos olim Izat Sulton quyidagicha fikrlarni keltirib o'tgan.

“Qissa — bir kishi va u bilan hayoti bog'liq bo'lgan bir necha kishining taqdiri o'rtacha hajmda tasvir etilgan, ammo hayotning keng manzarasini chizib berishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ymaydigan asarlar janriga mansubdir. Qissada, odatda, lirizm hikoya va romanga nisbatan kuchliroq bo'ladi. Qissaning ko'pincha birinchi shaxs, ya'ni taqdiri tasvir etilayotgan personaj nomidan yozilishi ham bejiz emas.”¹

Haqiqatan ham, aksariyat qissalarda birinchi shaxs, ya'ni taqdiri tasvir etilayotgan personaj nomidan aytilishi kuzatiladi. Voqealar o'rta hajmda beriladi

Adabiyotshunoslikda qissa termini bilan bir qatorda povest atamasi ham ishlatiladi. Taniqli adabiyotshunos Dilmurod Quronov bu ikki terminning ishlatilishi haqida o'zining quyidagi fikrlarini keltirib o'tgan.

“Sho'ro davriga kelib qissa o'rnida “povest” istilohini qo'llash keng ommalashdi. Natija shu bo'ldiki, bu ikki termin hanuz sinonim sifatida, goh esa boshqa-boshqa janr nomlari sifatida ham ishlatiladi. Holbuki, qissa bilan povestni boshqa-boshqa janrlar deya talqin qilishga asos yetarli emas, sinonim sifatida qo'llashga esa zarurat vo'q: “qissa” istilohining o'zi kifoya qiladi. Qissaning poetik qurilishi ham maqsad — qahramonga qaratilgani bilan belgilanadi. Jumladan,

Sulton Izzat. Adabiyot nazariyasi: — T. I O'qituvchi nashriyot-m atbaa ijodiy uyi, 2005. — 272 b.





qissa syujetidagi barcha voqealar qahramon atrofida uyushtiriladi, ya'ni syujet romanniki kabi ko'p tarmoqli emas."²

Adabiyotshunos To'xta Boboyev esa qissa janriga quyidagi fikrlarni keltirgan.

“Povest (rus. povestvovat — rivoyaviy hikoya qilish)— bosh qahramon taqdiri vositasida hayotning u yoxud bu qirralarini o'rta epik shaklda rivoyaviy usul bilan aks ettiruvchi asar”³

Taniqli olim Abdulla Ulug'ov esa quyida o'zining asosli fikrlarini keltirib o'tgan.


“Povest romanga qiyoslaganda kichik asar bo'lib, unda qahramon hayotidagi muayyan davr aks ettiriladi. Shuning uchun V.Belinskiy “Povest ham romanning o'zginasidir, faqat kichik hajmdadir, asarning hajmi esa mazmunning hajmi va mohiyatiga qarab belgilanadi”, deydi. Povest o'zbek adabiyotshunosligida “qissa” deb yuritiladi. Chunki o'zbek adabiyotidagi qissalarda ham xuddi rus adabiyotidagi povestlardagi singari qahramon hayotidagi ma'lum bir paytdagi voqealar ko'rsatiladi va ular asosiy bosh qahramon xarakterini ochishga qaratiladi. Qissalarda bosh qahramon syujetdagi barcha voqealarni yagona markaz sifatida birlashtirib turadi. Abdulla Qahhorning “Sinchalak” qissasidagi barcha voqealar bosh qahramon – Saidaning hayoti bilan bog'lanadi. Sadridin Ayniyning “Sudxo'arning o'limi” qissasida Ismat Qori – Qori Ishkamba asardagi barcha voqealar markazida turadi. Chingiz Aytmatov “Jamila”, “Alvido Gulsari”, “Oq kema” qissalarida Jamila, Tanaboy, Bolani asosiy qahramon sifatida ko'rsatib, hayotning yorqin manzarasini aks ettiradi.”⁴

L.I.Timofeevning uqtirishicha, povest o'rta epik shakl sifatida asosiy qahramonning hayotida yuz bergan bir qancha voqealarni tasvirlashi bilan hikoyada farqlanadi. Povestning hajmi katta bo'lganligi sababli unda bir emas, bir necha personajlar faol ishtirok etadi. Personajlarning o'zaro murakkab munosabatlari keng tasvirlanadi. L.V.Chernets ham roman bilan povestning farqlarida to'xtalib, shunday deb yozadi: romanga nisbatan povest syujetining masshtabi torroq va qurilishi soddaroq bo'ladi. Syujetning ko'pincha, xronikal xarakterda bo'lishi va hikoyachi muallif ovozining butun asar davomida eshitilib turishi — povestning o'ziga xos xususiyatidir. Badiiy asarning janr xususiyatini aniqlashda uning ichki mazmuni, asarning tuzilishi, bayon usuli va badiiy tafakkur tarzi asosiy mezondir. N. Berkovskiy, V.Kojinov, A.Ninov, N.A.Gulyaev va boshqa

² Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari /darslik/. — Toshkent: “Innovatsiya- Ziyo”, 2020, 310 b.

³ Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari Darslik. T. «O'zbekiston» nashriyoti. -2000, b.468

⁴ Ulugov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: G.G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018





adabiyotshunoslar ham povestning janr xususiyatlarini belgilashda badiiy mazmuni va hikoya qilish ohangini asos qilib oladilar. Ularning fikricha, povest o'ziga xos xususiyatlari bilan yangi zamon eposlariga nisbatan antik dunyo epopeyalariga yaqin turadi. Povest hayotning sokin epik oqimi hisoblanadi. Povestda, odatda, o'tkir dramatik va fojaviy vaziyat kuzatilmaydi. Hayotning bunday vaziyatlari roman uchun muhim hisoblanardi. Povestning bunday xususiyatlarini, ayniqsa biografik asarlar misolida aniq sezish mumkin. L.N.Tolstoy, M.Gorkiy, S.Ayniy, Oybek, A.Qahhor va boshqa so'z ustalarining avtobiografik povestlarida hayotning sokin va epik tasvirini, osoyishta ohangni payqash qiyin emas. Biroq rivoyada sokin va bosiq ohang hamma povestlarga ham xos bo'lgan xususiyat emas. Chunki adabiyotimiz tarixida shunday povestlar ham borki, ular o'tkir dramatism, keskin konflikt zaminiga qurilgan. Bu xil povestlarda bayon ohangi ham vaziyatga qarab tez-tez o'zgarib turadi. Bu xil povestlar tabiatan roman janriga yaqinlashib boradi. Masalan, mashhur qirg'iz yozuvchisi Chingiz Aytmatovning "Jamila", "Sarvqomat dilbarim", "Somon yo'li", "Alvido, Gulsari", "Ok kema" povestlari keskin dramatism zaminiga qurilgan. Abdulla Qahhorning "Sinchalak", Asqad Muxtorning "Qoraqalpoq qissasi", Pirimqul Qodirovning "Qadrim", "Erk" kabi qissalar ham shular jumlasidandir. Povest janri haqida so'z ketganda adabiy asarning hajmi hal qiluvchi rol o'ynamaydi. Chunki adabiyotimiz tarixida shunday povestlar xam bor. Ular hajm jihatidan romandan qolishmaydi ("Obid ketmon"). Aksincha, shunday povestlarni ham uchratish mumkinki, ular kattaroq hajmdagi hikoyadan oshib ketmaydi ("Eski maktab"). Bunday paytlarda, adabiy asarning janr xususiyatlarini yozuvchining badiiy tafakkur tarzi va bayon usuli belgilab beradi.

Xulosa qilib aytganda, qissa epik turning o'rta janri hisoblanadi. Qahramonlar taqdiri, hayotini ochib berishiga ko'ra romandan ko'ra kichikroq, hikoyadan ko'ra kattaroq voqealarni qamrab oladi. Qissa va povest atamasi bir xil ma'noni bildiradi. Ular o'rtasida tafovut sezilmaydi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari /darslik/. — Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2020, 310 b.
2. Rasulova U. 2022. "Badiiy asarda sarlavha poetikasi". O'zbekiston: til va madaniyat 1(2): 92-99
3. Qobul B. "Enayo'l" – 351 6
4. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – B.136

